

**INTERAKTIV O‘QUV VOSITALARI YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF  
O‘QUVCHILARIDA O‘QISH VA TINGLASH MALAKALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotasiya:** Maqolada interaktiv o‘quv vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda an‘anaviy ta’lim uslublari bilan bir qatorda zamonaviy interaktiv vositalar – multimedia materiallari, o‘yinlar, ilovalar va onlayn platformalar – samarali qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtiradi, tinglashda diqqatni jamlashni osonlashtiradi va malakalarni o‘stirishga yordam beradi. Maqolada interaktiv vositalarning o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishi, ularning o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, bu vositalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va o‘quvchilarning o‘rganish samaradorligini oshirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘quv vositalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada samarali va qiziqarli tashkil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Interaktiv o‘quv vositalari, boshlang‘ich sinf, o‘qish malakalari, tinglash malakalari, ta’lim texnologiyalari, multimedia, onlayn platformalar, o‘quv jarayoni, diqqatni jamlash, o‘rganish samaradorligi, interaktiv o‘yinlar, mobil ilovalar, o‘quvchilarni qiziqtirish, ta’limda innovatsiyalar, o‘quv malakalarini rivojlantirish.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы совершенствования навыков чтения и аудирования учеников начальных классов с помощью интерактивных учебных средств. Наряду с традиционными методами обучения важное значение имеет эффективное использование современных интерактивных средств – мультимедийных материалов, игр, приложений и онлайн-платформ – для развития навыков чтения и аудирования. Эти средства способствуют повышению интереса учеников к чтению, облегчают концентрацию внимания при аудировании и помогают совершенствовать навыки. В статье анализируется влияние интерактивных средств на учеников, их роль в развитии навыков чтения и аудирования. Также изучается значение этих средств в образовательном процессе и их вклад в повышение эффективности обучения. Результаты показывают, что использование интерактивных учебных средств делает процесс обучения более эффективным и увлекательным.

**Ключевые слова:** Интерактивные учебные средства, начальная школа, навыки чтения, навыки аудирования, образовательные технологии, мультимедиа, онлайн-платформы, учебный процесс, концентрация внимания, эффективность обучения, интерактивные игры, мобильные приложения, привлечение интереса учеников, инновации в образовании, развитие учебных навыков.

**Annotation:** The article addresses the issues of improving reading and listening skills in primary school students using interactive learning tools. Alongside traditional teaching methods, the effective use of modern interactive tools—such as multimedia materials, games, applications, and online platforms—plays a crucial role in developing reading and listening skills. These tools help increase students' interest in reading, facilitate concentration during listening activities, and assist in skill development. The article analyzes the impact of interactive tools on students, their role in enhancing reading and listening skills, and their significance in the educational process. It also explores the contribution of these tools to improving the effectiveness of learning. The results indicate that the use of interactive learning tools makes the learning process more efficient and engaging.

**Keywords:** Interactive learning tools, primary school, reading skills, listening skills, educational technologies, multimedia, online platforms, learning process, attention concentration, learning efficiency, interactive games, mobile applications, student engagement, educational innovations, skill development.

**Kirish:** Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu ko‘nikmalar nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta’minalash, balki kommunikativ kompetensiyalarni rivojlanish uchun ham muhimdir. O‘qish va tinglash ko‘nikmalar o‘quvchida fikrni to‘g‘ri ifodalash, ma’lumotni tahlil qila olish va axborotni ongli ravishda o‘rganish jarayonini jadallashtiradi. Interaktiv o‘quv vositalari, jumladan, multimedia materiallar, onlayn ilovalar, interaktiv doskalar va o‘yinlar, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini qiziqarli, samarador tezlashtiruvchi vositalar sifatida o‘zining ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Interaktiv o‘quv vositalari o‘quvchilarga o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirishda faol ishtirot etishga imkon yaratadi. Bu vositalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni o‘rganishga qiziqtirish, tinglash va tushunish jarayonlarini samarali boshqarish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli, interaktiv vositalarning ta’lim jarayonidagi roli va ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirishdagi imkoniyatlari alohida ahamiyat ega. Zamonaviy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun turli mazmundagi qiziqarli interaktiv vositlar qo‘llanilmoqda. Bu usullardan eng ko‘p qo‘llaniladigan usullaridan biri — o‘yin asosidagi ta’limdir. O‘yinlar orqali o‘quvchi yangi ma’lumotni osongina o‘zlashtirishi, tilga oid bilimlar va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Chunonchi, “So‘z topish” va “Harf ovchisi” kabi o‘yinlar nafaqat o‘quvchining lug‘at boyligini oshiradi, balki uning diqqatini jamlash va eslab qolish qobiliyatini ham yaxshilaydi.

**Adabiyotlar tahlili:** Davrlar mobaynida interaktiv o‘quv vositalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni va o‘quvchilarning o‘qish hamda tinglash malakalarini rivojlantirishdagi samaradorligi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi bao lib borilmoqda. Adabiyotlar tahlili va interaktiv o‘quv vositalarining ta’limda qo‘llanishi, o‘quvchilar malakalariga ta’siri haqida mavjud fikrlar yoritiladi.

Ilmiy tadqiqot mavzusi doirasidagi izlanishlar, interaktiv o‘quv vositalarining ta’lim jarayonidagi roli, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu o‘rinda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari va ularning mazmuni nima qaratilganligi ahamiyat berar ekanmiz, nutq, nutq o‘stirish madaniyati, til va uning turli xildasi semantik xususiyatlari, nutqiy munosabati, variantdosh birlıklarning nutqiy qo‘llanishi va uslubiy xususiyatlari, zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, nutqiy qo‘llanishi va uslubiy xususiyatlari, nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi singari qator mavzularda pedagog olimlar, tilshunos filologlar ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Tadqiqotchi olma Masharipova U. A. "Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantrish mezonlari ta’lim integrasiyasi asosida tashkil etish, ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy faoliyati, tilning kommunikativ ekpressiv va estetik funksiyalariniga ustivorlik berish asosida rivojlantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchlari nutq madaniyatni shakllantirish tamoyillari, ta’lim mazmuni komponentlari axborot-semiotik yondashuv asosida takomillatirish masalarini tahlil etган.

Axmedova G. M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari. (Ta’lim rus tilida olib boriladigan mакtablar misolida) mazvusida tadqiqot ishida ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan ham miqdor, ham sifat jihatdan botishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish maqsad etilgan, va ilmiy izlaishlar olib borgan.

O‘rinova F. O. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida kichik maktab yoshidagi

o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va pedagogic tizimi tahlil etilganlig bilan ahamiyatlidir.

Qodirova F. U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar so‘zlashuv nutqini shakllantirish mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida kar va zaif eshituvchi bolalarni so ‘zlashuv nutqi bilan bog’liq masalalar tahlil etilgan.

Bizning interaktiv o‘quv vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirish nomli maqolamizda o‘quvchilarning o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda an‘anaviy ta’lim uslublari bilan bir qatorda zamonaviy interaktiv vositalar – multimedia materiallari, o‘yinlar, ilovalar va onlayn platformalar – samarali qo‘llanilishi masalalari muhokama qilinganligi bilan ajralib turadi.

Karimova R. boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda tinglash va o‘qish ko‘nikmasini interaktiv ta’lim vositalari: video, audio va animatsion materiallар yordamida rivojlantirishning pedagogik jihatlarini o‘rgangan.

Shavkat Xolmatov boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish malakalarini interaktiv texnologiyalar orqali takomillashtirishda elektron kitoblar, interaktiv ta’lim platformalari va onlayn testlar vositasida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etgan

G‘arb va sharq olimlari ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga singdirishda keng ko‘lamli ilmiy ishlar olib borgan va interaktiv vositalar yordamida o‘quvchilarda o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqqan.

Kuzatuvlar va ilmiy manbalar tahlili O‘zbekiston, Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstraliyada mavzu doirasida olib borilgan ishlarni o‘rganish imkoniyatini berdi. Quyidagi xorijlik olimlar va tadqiqot ishlari xorijda nutq va uning mazmuni turli xil sohalarda tahlil etishgan.

Mehmet Aydin tadqiqotda interaktiv o‘quv vositalari: interaktiv kitoblar, audio-vizual materiallар, online platformalar va onlayn video materiallар orqali o‘quvchilarning o‘qish va tinglash malakalarini takomillashtirish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish mumkinligi ta’kidlangan.

Maged A. Rady) interaktiv onlayn resurslar va platformalar yordamida o‘quvchilarning o‘qish va tinglash malakasini oshirishda audiokitoblar, video darslar va onlayn viktorinalardan foydalanishning psixologik imkoniyatlarini tahlil etgan. Noha El-Deeb o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirishda multimediali resurslar va virtual sinflardan foydalanishning interaktiv metodlarini taklif etgan.

Richard E. Mayer— "Multimedia Learning" nomli kitobida, Mayer o‘quvchilarning o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda multimediali materiallar (audio, video, animatsiyalar)ning ahamiyatini tadqiq qilgan. Mayerning kognitiv yuk nazariyasiga ko‘ra, vizual va auditorial materiallarning birgalikda ishlatilishi o‘quvchilarning ma‘lumotni yaxshiroq qabul qilishini va tushunishini ta’minkaydi. Uning ishida interaktiv o‘quv vositalarining (masalan, interaktiv video va audiokitoblar) o‘quvchilarni faollashtirishi va ular tomonidan o‘rganish samaradorligini oshirishi ko‘rsatilgan.

Robyn Zeedyk "Game-Based Learning in Early Childhood Education" tadqiqotida o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning tinglash va o‘qish malakalarini rivojlantirish haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. U o‘quvchilarga o‘yinlar orqali o‘qish va tinglashni o‘rgatish jarayonining samaradorligini ko‘rsatigan.

**Natija va muhokama.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjud va suniy intelkt yordamida sohani yanada rivojlantirish mumkin va bu uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda biz o‘rganmoqchi bo‘lgan mazkur mavzuni tahlil etishda integratitsiya masalari ham ahamiyatga ega. Integrasiya assosida o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini Jadallashtirish, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minalash va nutqiy malakalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ularni samarali qo‘llashi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Biz bu masalada quyida keltirilgan "So‘z Top" o‘yini misolida o

92

‘z fikr mulohazalarimizni bayon etishni maql deb bildik. "So‘z Top" o‘yini — bu o‘yin, asosan, tilni o‘rganish, so‘z boyligini oshirish va fikrni tezda ifodalash uchun juda yaxshi. O‘yin odatda ikki yoki undan ortiq odam o‘rtasida o‘ynaladi va quyidagi tarzda o‘tkaziladi:

O‘yin boshlanishi: O‘yinchilardan biri birinchi so‘zni aytadi. Bu so‘z tasodifiy bo‘lishi mumkin, yoki oldindan kelishilgan bo‘lishi mumkin.

O‘yining asosiy maqsadi: Har bir o‘yinchi birinchi so‘zga tegishli bo‘lgan so‘zni aytishi kerak. Masalan, agar birinchi so‘z "kitob" bo‘lsa, ikkinchi o‘yinchi "o‘qish" yoki "kitobxona" kabi so‘zlarni aytishi mumkin.

Davomiyligi: So‘zlar bir-biriga mantiqan bog’liq bo‘lishi kerak. Har bir o‘yinchi faqatgina oldingi so‘zga tegishli so‘zni tezda aytishi zarur. So‘zga tegishli bo‘lmagan yoki vaqtida javob bera olmaydigan o‘yinchi o‘yindan chiqadi.

O‘yining yutug‘i: O‘yinda oxirgi qoldirilgan o‘yinchi g’alaba qozonadi, ya’ni har bir o‘yinchi vaqt-vaqt bilan xatolik yoki javob berish imkoniyatini yo‘qotadi.

Misol:

- Birinchi o‘yinchi: "gul"
- Ikkinci o‘yinchi: "bog"
- Uchinchi o‘yinchi: "bog'bon"
- ...

"So‘z Top" o‘yini nafaqat mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, balki kulgili va interaktiv tarzda tilni o‘rganishga ham yordam beradi.

"Harf Ovchisi" — bu so‘z va harflar asosida o‘ynaladigan juda qiziqarli va o‘rganishga yordam beradigan o‘yin. O‘yin odatda guruhlar yoki shaxsiy tarzda o‘ynaladi, va unda harflarni topish, ulardan so‘zlar yaratish va tezkor fikrlash talab etiladi.

O‘yin boshlanishi: Har bir o‘yinchi yoki jamoaga ma’lum bir harflar beriladi. Masalan, "A", "O", "S", "D", "V" va shunga o‘xhash harflar.

O‘yining maqsadi: Berilgan harflardan iloji boricha ko‘proq so‘zlar yasash kerak. O‘yinchi yoki jamoa harflarni tezda o‘ylab, ular yordamida (to‘g‘ri) so‘zlarni yaratishi kerak.

So‘z yaratish: Har bir o‘yinchi yoki jamoa berilgan harflardan 2 yoki undan ortiq harfdan iborat bo‘lgan so‘zlarni tuzishi kerak. Masalan, agar "A", "R", "K" harflari berilsa, o‘yinchi "ARK", "RAK", "KAR" kabi so‘zlarni yaratishi mumkin.

Vaqt cheklovi: O‘yin davomida vaqt chegarasi o‘rnataladi. Misol uchun, har bir o‘yinchi 1-2 daqiqa ichida so‘zlarni yozishi kerak.

O‘yining tugashi va g’olib: Vaqt tugagach yoki har bir o‘yinchi o‘z so‘zlarini aytib tugatganda, har bir yaratgan so‘zlar sanaladi. Eng ko‘p to‘g‘ri so‘z yaratgan o‘yinchi yoki jamoa g’olib bo‘ladi.

Misol:

- Berilgan harflar: A, O, S, D, V O‘yinchi yoki jamoa quyidagi so‘zlarni yasashi mumkin: "savdo", "davo", "savod" va boshqalar.

O‘yining foydalari: Tez fikrlash: O‘yin o‘yinchilardan tezkor fikrlashni talab qiladi, chunki ular cheklangan vaqt ichida so‘zlarni topishlari kerak.

• Tilni rivojlantirish: O‘yinchilar so‘z boyligini oshiradi va yangi so‘zlar o‘rganadi.

• Diqqatni jamlash: Bu o‘yin o‘yinchilarning diqqatini jamlash va harflarni tezda tanib olish qobiliyatini oshiradi.

"So‘z Top" va "Harf Ovchisi" kabi o‘yinlar til o‘rgatishda interfaol va ijodiy yondashuvni tatbiq etishning samarali vositasidir. Ushbu o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki mantiqiy va tezkor fikrlash, diqqatni jamlash, hamda ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini ham oshiradi. O‘yinlar ta’lim jarayonida quvnoq va samarali muhit yaratishga xizmat qiladi. "So‘z Top" va "Harf Ovchisi" kabi o‘yinlar Tilni rivojlantirish uchun interfaol yondashuvlardan foydalanish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish, tezkorlik va e’tiborni rivojlantirish, Diqqatni jamlash va ijodiy yondashuv, guruh bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish, raqobat orqali qiziqishni oshirish imkoniyatlarini taqdim etib, o‘quvchilarni nutq malakalarini rivojlantirishga imkon beradi.

"So‘z Top" va "Harf Ovchisi" kabi o‘yinlar o‘quvchilarning til boyligini oshirishga qaratilgan samarali usullardir. Bu o‘yinlar o‘yin shaklida o‘quvchilarni til o‘rganishga rag‘batlantiradi. Har ikki o‘yin ham o‘yinchilarni mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga undaydi. "So‘z Top" o‘yinida so‘zlarning mazmuniy aloqasini topish, "Harf Ovchisi" o‘yinida esa harflardan yangi so‘zlar yasash orqali fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

O‘yinlar o‘yinchilardan tez va to‘g‘ri javob qaytarishni talab qiladi. Bu esa o‘quvchilarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va vaqt boshqaruviga e’tibor qaratadi. Harflardan so‘z yasash yoki so‘zlarga mazmuniy bog‘liq so‘zlarni topish o‘yinchilardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon diqqatni jamlash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarını mustahkamlaydi.

Guruhi o‘yinlarda hamkorlik va raqobat muhiti o‘quvchilarning jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Har ikki o‘yinda ham raqobat elementi mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarda o‘yin jarayoniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. O‘yinchilarning faolligi ta’minlanib, dars jarayonlari yanada jonlanadi. Ushbu o‘yinlar nafaqat qiziqarli vaqt o‘tkazish, balki ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflar uchun bu o‘yinlar quayta‘lim vositasi hisoblanadi.

**Xulosa.** Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va tinglash malakalarini rivojlantirish ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarda nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv o‘quv vositalari, jumladan, multimedia materiallari, onlayn platformalar va ta’limiy o‘yinlar, bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularda diqqatni jamlash, fikrni ifodalash va tushunishni jadallashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, "So‘z topish" va "Harf ovchisi" kabi o‘yinlar bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarını rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish va axborotni samarali eslab qolish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, interaktiv o‘quv vositalari o‘quv jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli qiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning tilga oid bilimlari chuqurlashadi, shaxsiy rivojlanish va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyalari oshadi. Zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanishning keng qo‘llanilishi kelajak avlodning bilim va ko‘nikmalarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes." Harvard University Press, 1978.
2. Dewey, J. "Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education." Macmillan, 1916.
3. Выготский, Л.С. "Мышление и речь." Москва: Педагогика, 1982.
4. Махмудова, Н. "Болаларнинг нутқини ривожлантиришда инновацион технологиялар." Тошкент, 2020.
5. Piaget, J. "The Psychology of Intelligence." Routledge, 1950.
6. Clark, R. C., & Mayer, R. E. "E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning." Wiley, 2016.
7. Laurillard, D. "Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology." Routledge, 2012.
8. Kozma, R. B. "Technology and Classroom Practices: An International Study." Journal of Research on Technology in Education, 2003.
9. Baxodirova, G. "Interaktiv ta’lim vositalari va ularning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi." Toshkent, 2022.
10. UNESCO. "ICT in Education: A Curriculum and Programme of Teacher Development." UNESCO Publications, 2011.

11. Xodjayev, A. "Boshlang'ich ta'lif metodikasi: Interaktiv o'qitish texnologiyalari." TDIU Nashriyoti, 2019.
12. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. "Cooperative Learning: Improving University Instruction by Basing Practice on Validated Theory." Journal on Excellence in College Teaching, 2009.
13. Prensky, M. "Digital Game-Based Learning." McGraw-Hill, 2001.
14. Gee, J. P. "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy." Palgrave Macmillan, 2007.
15. Muhammadjonova, Z. "Bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinli yondashuvlar." Toshkent, 2021.
16. Brown, H. D. "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy." Pearson Education, 2007.
17. Harmer, J. "The Practice of English Language Teaching." Longman, 2007.
18. Nunan, D. "Practical English Language Teaching." McGraw-Hill, 2004.
19. Richards, J. C., & Schmidt, R. "Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics." Routledge, 2013.
20. Yusupova, D. "Til o'qitishda o'qish va tinglash metodlari." Toshkent, 2020.